

## Qo'shrabot Tumani Gidrotoponimlarining Izohi

*Nurmuhammedov Bahodir Shakarboyevich*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani gidrotoponimik atamalarning joylashish o'rnini, izohi berilgan. Tumanning barcha gidronimik toponimlari nomi, mazmuni va tarixi jadval asosida tushuntirilib, o'rganilib chiqilgan. Shuningdek, toponimika, gidronimika atamalariga ham ta'rif berilgan.

**Kalit so'zlar:** toponimika, onomastika, makrotoponim, mikrotoponim, nomshunoslik, gidronimika, oykonimika, oronimika, kosmonimika, urbanonimika.

Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastika joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma, boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda ob'ektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta ob'ektlar (materiklar, okeanlar, tog'lar, cho'llar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik ob'ektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, ko'chalar, qo'rg'onlar va shu kabi) ning atokli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki ko'pincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

O'zbek onomastikasining tarkibiy qismi bo'lgan toponimika keyingi yillarda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida rivojlanib, o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi, bu sohaning o'z tadqiqotchilari yetishib chiqdi<sup>2</sup>. Toponimikaning nazariy masalalariga, geografik obyektlar nomlarini hududiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan qator monografik tadqiqotlar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi.

Shunga qaramasdan, Samarqand viloyati toponimiyasi materiallari yetarli darajada to'plangan va tadqiq qilingan emas. Bu borada T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov va S.Bo'riyevlarning nomzodlik dissertatsiyalari<sup>3</sup>, B.O'rinboyev, N.Begaliyev, A.Turobovlar tomonidan yozilgan asarlar<sup>4</sup>dan hamda hamda F.Ergashev, N.Elmuurodov, Sh.Temirovlarning ayrim kuzatishlari<sup>5</sup>dan boshqa ishlar yuzaga

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti Iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. Монография. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 12-38.

<sup>3</sup> Раҳматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – М.: 1973. –31 с.; Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари: Филол.фан.номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 1994. –25 б.; Тurobov A.M. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. –Тошкент, 1999. –22 б.; Бўриев С.Н. Ургут тумани микропонимларининг лексик-семантик таҳлили. Филол.фан.номз. ...дис.автореф. –Тошкент, 2010. –23 б.

<sup>4</sup> Ўринбойев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1997. – 202 б.; Ўринбойев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 2003. – 264 б.; Тurobov A. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2001. – 87 б.; Бегалиев Н., Тurobov A. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2015. – 156 б.

<sup>5</sup> Эргашев Ф. Каттақўрғон этноним ва этнотопонимларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. № 5. – Б. 76-80; Элмуurodov Н. Топонимияда экстралингвистик омиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 3. – Б. 93-95; Темиров Ш. Эгизтепа / Эгизтепа оронимлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 4. – Б. 92-94 ва бошқалар.



kelgan emas. Vaholanki, Samarqand va uning atrof hududi toponimlarini lingvistik tahlil etish O‘zbekistonning qadimiy hamda zamonaviy tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyatga ega.

Nomshunoslik, toponimika muammolariga davlat darajasidagi masala sifatida yondoshila boshladi. Nomlarni bilish faqat ilmiy, ma’rifiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmay, balki amaliy-milliy va mafkuraviy jihatdan ham muhimdir.

Turli xil geografik ob’ektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda Toponomikaning quyidagi bo‘limlari mavjud:

- i. gidronimika — suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko‘l kabilarning nomlarini o‘rganuvchi soha;
- ii. oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, ovul, qo‘rg‘on nomlarini o‘rganuvchi soha;
- iii. oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tof, cho‘qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini tekshiradigan soha;
- iv. urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob’ektlar nomlarini o‘rganuvchi soha;
- v. kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob’ektlar (osmon jismlari) nomlarini o‘rganuvchi soha.

Quyida esa Qo‘shrabot tumanining gidronimik toponimlari o‘rganib chiqilgan.

Ariqoshgan	Bu toponim “ariq” va “oshmoq” yoki “ochmoq” qismlaridan ibo rat. Ariq – sun’iy ravishda yasalgan suv yo‘li, o‘zani va undagi suv ma’nosini ifodalaydi. Demak, bu toponimning shakllanishi shu hududda ariq ochish jarayoni bilan aloqador.
Beklarsoy	Qo‘ng‘irot qabilasining oyinni bo‘limida beshbola shahobchasi bo‘lib, u yigirma to‘pdan iborat. Ana shu to‘plarning biri “beklar // beglar” deb ataladi. Shuningdek, mang‘itlarning oq mang‘it urug‘i va mirishkorlarning tarkibida ham “beglar” to‘pi mavjud. “Soy” so‘zi umumturkiy bo‘lib, “ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi, ko‘pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo‘lgan pastlik joy, suv yo‘li, vodiy” ma’nolarini bildiradi. Shunga binoan toponimni “beklar / beglar to‘pi aholi yashaydigan, soy bo‘yidagi qishloq” deb izohlash mumkin.
Buloq	“Buloq” so‘zi “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni “buloq yoqasida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.
Buloqboshi	Bu toponim “bo‘ran // bo‘ron“ va “buloq” qismlaridan iborat. “Bo‘ran // bo‘ron” kishi ismi (antroponim), shu bilan birga xo‘ja-qo‘sh tamg‘ali qabilasi bandikuchuk urug‘ining bir shahobchasi ham bo‘ran // bo‘ron deb yuritiladi. “Buloq” so‘zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni “buloq yonida qishloq bunyod bo‘lishiga asos solgan kishilarning avlodi yashaydigan joy, yashash maskani” deb izohlash mumkin.
Gujumsoy	Bu toponim “gujum” va “soy” qismlaridan iborat. “Gujum” o‘simlik nomi (fitonim) bo‘lib, sada qayrag‘och ma’nosini bildiradi. “Soy” so‘zi esa umumturkiy bo‘lib, “ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi, ko‘pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo‘lgan pastlik joy, suv yo‘li, vodiy” ma’nolarini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni “sada qayrag‘ochlar ko‘p o‘sadigan soy bo‘yidagi qishloq” deb izohlash mumkin.
Gulxonasoy	Toponim “gul”, “xona” va “soy” qismlaridan tashkil topgan. “Gul” so‘zi forscha bo‘lib, “chechak, atirgul, umuman ziynat uchun ekiladigan yoki tabiiy, o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar” ma’nosini bildiradi. “Xona” so‘zi ham forscha bo‘lib, “uy, turar joy, bino, bo‘lma”
Yozbuloq	Bu toponim “yoz” va “buloq” qismlaridan iborat. “Yoz” so‘zi yilning bahor bilan kuz



	orasidagi eng issiq fasli ma'nosini bildiradi. "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" ma'nosini bildiradi. Shunga binoan "yoz faslida buloq yonida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlash mumkin.
Jala	Bu toponimni tashkil etgan "jala" forscha so'z bo'lib, "yomg'ir tomchisi, shiddatli yomg'ir" ma'nolarini ifodalaydi.
Jalaxirmon	Toponimi "jala" va "xirmon" qismlaridan iborat. "Jala" forscha so'z bo'lib, "yomg'ir tomchisi, shiddatli yomg'ir" ma'nolarini ifodalaydi. "Xirmon" ham forscha bo'lib, "yig'ib-terib olingan ekinlar hosilini to'plash uchun ajratilgan joy, maydoncha" ma'nosini bildiradi.
Jarbuloq	Bu mikrotoponim "jar" va "buloq" qismlaridan iborat. Oqar suvlar yumshoq tog' jinslarini o'yib hosil qilgan chuqurlik jar deb ataladi. "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" ma'nosini bildiradi. Shunga binoan "jar yonida bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlash mumkin.
Jombuloq	Toponimni "jom" va "buloq" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. Jimbuloq // jombuloq – buloq ko'zi bilan suvli qatlam teng bo'lgan, suvli qatlam jinslari orasidan suv sizib chiqadigan buloq. Shunday buloq yonida barpo etilgan qishloq keyinchalik Jombuloq deb atalgan, ya'ni gidronim oykonimga aylangan.
Jonbuloq	Bu toponim "jon // jona" va "buloq" qismlaridan iborat. Jon // jona – qiyalik ma'nosini bildiradi. "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" ma'nosini bildiradi. Shunga binoan bu mikrotoponimni "qiyalik yonida bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlash mumkin.
Ko'lto'sin	Bu toponim "ko'l" va "to'sin" qismlaridan iborat. "Ko'l" – gidrografik atama, "to'sin" – yog'ochdan yoki termir-betondan qilingan inshootning tepasiga ko'ndalang solingan baquvvat yog'och ustun (balka). Shunga ko'ra "Ko'lto'sin" - "temir-betondan qilingan inshootning tepasiga ko'ndalang solingan baquvvat to'sin bilan hosil qilingan ko'l atrofidagi qishloq" demakdir.
Murodsoy	Bu toponim "murod" va "soy" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. "Murod" so'zi "erishish, amalga oshirish ko'zda tutilgan orzu, maqsad, muddao; erkaklar ismi" ma'nosini bildiradi. Shunga binoan bu mikrotoponimni "Murod degan kishi tashkil etgan soydagi qishloq", deb izohlash mumkin.
Ochabuloq	Qo'shrabot tumanidagi qishloq. Bu toponim "ocha // acha", "buloq" qismlaridan iborat. Kenagaslar tarkibidagi urug'larning biri acha // ocha deb atalgan. Shuningdek qo'ng'irotlarning voxtang'ali bo'limida ham shunday urug' nomi bor. Qoraqalpoqlar tarkibida ham osha // asha urug'i bor (S.Qoraev, "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma" ma'nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni "ocha // acha urug'i vakillari tomonidan bulog'i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlash mumkin.
Oqchopsoy	Qo'shrabot tumanidagi mahalla fuqarolar yig'ini. Bu mikrotoponim "oq", "chop" va "soy" qismlaridan iborat qo'shma so'z sanaladi. "Oqchob // Aqchap" tuz koni, qishloq, yashash maskani ma'nolarini bildiradi. "Soy" so'zi esa umumturkiy bo'lib, "ikki adir yoki tog' oralig'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy" ma'nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu mikrotoponimni "tuz koni yonida soy bo'yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq" deb izohlasa bo'ladi. Bu qishloqda mahalla fuqarolar yig'inining idorasi joylashganligi uchun "Oqchopsoy MFY" deb nomlanadi.
Po'latbuloq	Toponimi "po'lat" va "buloq" qismlaridan iborat qo'shma so'zdir. O'zbeklarning po'latchi, qoraqalpoqlarning toqpolot, barloslarning po'latbachcha urug'lari mavjud. Etnonimlarning asosi "po'lat"dir. "Buloq" so'zi esa "yer ostidan otilib, qaynab



	chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni buloq yonidagi “po’latchi” urug’i vakillari tomonidan bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.
Sovuqbuloq	Qo’shrabot tumanidagi qishloq. Bu toponim “sovuq” va “buloq” qismlaridan iborat qo’shma so’zdir. “Sovuq” so’zi “past harorat, harorati past; sovigani, sovitilgan; harorati belgisi chegaradan past” ma’nolarini bildiradi. “Buloq” so’zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “sovuq haroratli buloq yonida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.
Soribuloq	Qo’shrabot tumanidagi qishloq. Bu toponim “sari(q)” va “ovul” qismlaridan iborat. “Sari(q) // sori(q)” umumturkiy etnonim bo’lib, u turkman, qozoq, qirg’iz, boshqird, qoraqalpoq, o’zbeklar tarkibida mavjud. O’zbeklarning urug’laridan qo’ng’irotlar, laqaylar, qatag’on, mang’it, batoshlar tarkibida ham sariq // sari // sori(q) urug’i bor. “Buloq” so’zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “sori(q) urug’i vakillari tomonidan buloq yonida bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo’ladi.
Toshbuloq	Bu toponim “tosh” va “buloq” qismlaridan iborat qo’shma so’zdir. “Tosh” so’zi yaxlit massa yoki bo’lak-bo’lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan qattiq, tog’ jinslarining umumiy nomidir. “Buloq” so’zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni atrofi toshlar bilan o’ralgan bulog’i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.
Xaytanbuloq	Qo’shrabot tumanidagi qishloq. Bu toponim “xaytan” va “buloq” qismlaridan iborat qo’shma so’zdir. “Xaytan” so’zi “xayvar”ning og’zaki so’zlashuv shakli bo’lishi mumkin. Xayvar – “uzoqdan keltirilgan joy nomi” demakdir. “Buloq” so’zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma’nosini bildiradi. Shunga binoan bu toponimni tog’ yo’lagi, dovon yonida bulog’i bor joyda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.
Xo’jasoy	Bu toponim “xo’ja” va “soy” qismlaridan iborat qo’shma so’zdir. “Xo’ja” urug’ nomlaridan biri. “Soy” so’zi esa umumturkiy bo’lib, “ikki adir yoki tog’ oralig’idagi, ko’pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo’lgan pastlik joy, suv yo’li, vodiy” ma’nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “xo’ja avlodiga mansub kishilar tomonidan soy bo’yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo’ladi.
Chorboqsoy	Bu toponim “chor” (to’rt), “boq (g’)” va “soy” qismlaridan iborat qo’shma so’zdir. “Chorbog’(q)” aynan to’rt bog’ demakdir. “Soy” so’zi esa umumturkiy bo’lib, “ikki adir yoki tog’ oralig’idagi, ko’pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo’lgan pastlik joy, suv yo’li, vodiy” ma’nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “to’rt tarafi bog’ bo’lgan soy bo’yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo’ladi.
Yangi qo’rg’onsoy	Ushbu toponim “yangi”, “qo’rg’on”, “soy” qismlaridan iborat. Bu joy nomini yangi joyda soy bo’yida barpo etilgan qo’rg’on, aholi yashash maskani, qishloq, deb izohlasa bo’ladi.
O’rtasoy	Qo’shrabot tumanidagi mahalla fuqarolar yig’ini. Bu toponim “o’rta” va “soy” qismlaridan iborat. “O’rta” so’zi “sathning chetlaridan markaziga tomon teng uzoqlikda bo’lgan qismi, nuqtasi, markaz” ma’nolarini bildiradi. “Soy” so’zi esa umumturkiy bo’lib, “ikki adir yoki tog’ oralig’idagi, ko’pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo’lgan pastlik joy, suv yo’li, vodiy” ma’nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu mikrotoponimni “tog’lar o’rtasidagi soy bo’yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo’ladi. Bu qishloqda mahalla fuqarolar yig’inining idorasi joylashganligi uchun “O’rtasoy MFY” deb ham yuritiladi.
Qorasoy	“Qora” so’zi yer osti sizot suvlari ma’nosidadir. “Soy” so’zi esa umumturkiy bo’lib,





	“ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi, ko‘pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo‘lgan pastlik joy, suv yo‘li, vodiy” ma‘nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “sizot suvlari oqadigan soy bo‘yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo‘ladi.
Quruqsoy	“Quruq” - “suvi, nami batamom qochgan joy” demakdir. “Soy” so‘zi esa umumturkiy bo‘lib, “ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi, ko‘pincha oqar suvlar harakati natijasida hosil bo‘lgan pastlik joy, suv yo‘li, vodiy” ma‘nolarini ifodalaydi. Shunga binoan bu toponimni “suvi, nami qochgan, quruq soy bo‘yida barpo etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlasa bo‘ladi.
Qo‘tirbuloq	“Qo‘tir” so‘zi qadimgi turkiy tilda yasama so‘z bo‘lib, qadraq so‘zi bilan aloqador va u tog‘ning bukilgan soylik joylari, egri-bugri, chuqur joy ma‘nosini ifodalaydi. “Buloq” so‘zi esa “yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma” ma‘nosini bildiradi. Shunga binoan bu mikrotoponimni tog‘ning bukilgan, egri-bugri joylarida bulog‘i bor yerda bunyod etilgan yashash maskani, qishloq” deb izohlash mumkin.

Suv havzalarining nomlari asrlar va ming yillar davomida saqlanib kelinmoqda, shuning uchun gidronimlar juda yuqori lingvistik va tarixiy ahamiyatga ega. Turli fanlar chorrahasida joylashgan tarmoqlararo soha sifatida gidronimika turli profillar mutaxassislariga qimmatli tadqiqot materiallarini taqdim etadi.

Gidronimlarni tahlil qilish qo‘shni hududdagi etnik va migratsiya jarayonlarini, xalqlarning ko‘chib o‘tish yo‘llari va yo‘nalishlarini kuzatish, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqalar va tizimli aloqalarni va bir etnik guruhning boshqasiga tarixiy o‘zgarishini aniqlash, hududning geografik sharoitlarini, tarixiy voqealarni, etnolingvistik o‘tmishni tiklash, etnik-madaniy fonni taqdim etish imkonini beradi.

Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki ba‘zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o‘zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko‘pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimiya xalqlarning tarixiy o‘tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o‘tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo‘llari va sh. k. geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga ko‘ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi T.ning amaliy jihati hisoblanadi.

### Fydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдимуратов К.: Почему так говорим; (Из истории топонимии Каракалпакистана). Нукус, 1965; Почему так названо? Нукус, 1970.
2. Temirov SH.A. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa fanlari doktori dis. avtoref. – Samarqand, 2019.- 45 b
3. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б
5. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 88 б
6. Туробов А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004
7. Туробов А.М. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 87 б
8. Қораев С. К. Географик терминларнинг қисқача изоҳли луғати . Тошкент, 1979.
9. Қораев С. К. Этнонимика. Тошкент, 1979
10. Akramovna, K. M., & Nusratullayevich, T. B. (2020). Classification of Sciences in the Works of Abu Raykhan Beruniy. *Open Journal of Philosophy*, 10(03), 411.

